

## **VI. TRANSPORT**

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Yuk tashish. 2023 yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 31,9 mln.tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 foizni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 1122,8 mln.tn.km.ni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,1 oizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

### **Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**

	<i>2023 yil yanvar-iyun</i>	<i>2022 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>
<b>Tashilgan yuk, mln. tn</b>	<b>31,9</b>	<b>101,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	31,9	101,4
<b>Yuk aylanmasi, mln. tn-km</b>	<b>1122,8</b>	<b>104,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	1122,8	104,1

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportidagi yuk aylanmasi 2022 yil yanvar-iyunga nisbatan 103,0 foizga o'sdi va 501,2 mln. tn-km. ni tashkil qildi.


Buxoro viloyatining tuman, shaharlar bo'yicha tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahar (8675,3 ming tonna) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Romitan (2922,8 ming tonna), Kogon (2172,2 ming tonna), Qorovulbozor (2746,0 ming tonna) va G'ijduvon (3316,8 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida yuk tashish, ming tonna**  
(2023 yil yanvar–iyun)

	<b>ming tonna</b>	<b>2022 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</b>	<b>jamiga nisbatan ulushi, foizda</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>31916,8</b>	<b>101,4</b>	<b>100,0</b>
Buxoro sh.	8675,3	102,6	27,2
Kogon sh.	1910,3	96,3	6,0
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	2020,9	100,2	6,3
Vobkent	1457,3	101,5	4,6
Jondor	1196,4	100,3	3,7
Kogon	2172,2	100,9	6,8
Olot	844,2	100,5	2,6
Peshko'	1299,3	101,1	4,1
Romitan	2922,8	101,2	9,2
Shofirkon	1184,3	101,3	3,7
Qorako'l	2170,9	100,8	6,8
Qorovulbozor	2746,0	105,6	8,6
G'ijduvon	3316,8	100,6	10,4

Ko'rsatilgan yuk tashishda eng kichik tonna quyidagi hududlar Shofirkon (1184,3 ming tonna) va Olot (844,2 ming tonna) hissasiga to'g'ri keldi.

**Tashilgan yukning umumiy hajmida hududlarning ulushi, foiz hisobida  
(2023 yil yanvar-iyun)**



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro (27,0 foiz) shahar egalladi. Shu bilan birga Romitan (9,2 foiz) va G'ijduvon (10,4 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yuk aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni G‘ijduvon tumani (14544,1 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich bilan Qorovulbozor tumanida (239535,1 ming tonna-km) va Buxoro (175713,9 ming tonna-km) shahrida kuzatildi.

**Hududlar kesimida yuk aylanmasi, ming tonna-km**

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2022 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
<b>Viloyat jami</b>	<b>1122779,7</b>	<b>104,1</b>	<b>100,0</b>
Buxoro sh.	175713,9	102,8	15,6
Kogon sh.	89988,4	145,8	8,0
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	90036,3	102,2	8,0
Vobkent	57334,8	102,6	5,1
Jondor	55164,6	102,7	4,9
Kogon	84614,3	103,3	7,5
Olot	18354,2	102,8	1,6
Peshko‘	19261,3	101,9	1,7
Romitan	77754,4	101,7	6,9
Shofirkon	40367,3	103,2	3,7
Qorako‘l	29193,5	103,1	2,6
Qorovulbozor	239535,6	98,2	21,3
G‘ijduvon	145461,1	102,7	13,1

Ko'rsatilgan yuk aylanmasidagi eng kichik tonna-km quyidagi Peshko' (19261,3 ming tonna-km), Olot (18354,2 ming tonna-km) va Qorako'l (29193,5 ming tonna-km) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi,  
foiz hisobida (2023 yil yanvar-iyun)**



Hududlar bo'yicha yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Qorovulbozor (21,3 foiz) tumani egalladi. Shu bilan birga Buxoro shahri (15,6 foiz), G'ijduvon (13,1 foiz) tumani va Kogon (8,0 foiz) shahrida kuzatildi.

**Yo‘lovchi tashish.** 2023 yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 136,3 mln. kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi. Yo‘lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 101,5 foizga teng bo‘lib, 4723,3 mln. yo‘lovchi-km. ni tashkil qildi.

**Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi hajmi va o‘rish sur‘ati**

	<i>2023 yil yanvar-iyun</i>	<i>2022 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>
<b>Transportda tashilgan yo‘lovchilar, mln.kishi</b>	<b>136,3</b>	<b>100,7</b>
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	136,3	100,7
<b>Yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km</b>	<b>4723,3</b>	<b>101,5</b>
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	4723,3	101,5

Jami avtomobil transportidagi yo‘lovchi aylanmasi 2022 yil yanvar-iyunga nisbatan 101,5 foizni va 4723,3 mln. yo‘lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlar yo‘lovchi aylanmasining ulushi 87,8 foizni tashkil etdi.


Viloyatning tuman, shaharlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Buxoro shahri (36321,5 ming kishi) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko‘rsatkich bilan G‘ijduvon (18224,0 ming kishi) tumani, Buxoro (12771,8 ming kishi) va Kogon (10818,1 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi**  
(2023 yil yanvar–iyun)

	<i>ming kishi</i>	<i>2022 yil yanvar-iyunga nisbatan foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
<b>Viloyat jami</b>	<b>136278,9</b>	<b>100,7</b>	<b>100,0</b>
Buxoro sh.	36321,5	100,3	26,6
Kogon sh.	5197,0	101,7	3,8
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	12771,8	101,3	9,4
Vobkent	5695,2	100,8	4,2
Jondor	9645,1	100,2	7,1
Kogon	10818,1	100,1	7,9
Olot	5268,5	101,5	3,9
Peshko‘	2248,6	100,5	1,6
Romitan	9098,1	101,4	6,7
Shofirkon	7921,9	100,7	5,8
Qorako‘l	4746,6	100,9	3,5
Qorovulbozor	8322,5	101,6	6,1
G‘ijduvon	18224,0	100,4	13,4

Transportda tashilgan yo'lovchilar soni bo'yicha eng kichik ko'rsatilgan quyidagi hududlar Peshko' (2248,6 ming kishi), Qorako'l (4746,6 ming kishi) tumanlari va Kogon shahri (5197,0 ming kishi) hissasiga to'g'ri keldi.

**Tashilgan yo'lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, foiz hisobida**  
(2023 yil yanvar-iyun)



Hududlar bo'yicha tashilgan yo'lovchining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro (26,6 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga G'ijduvon (13,4 foiz), Buxoro (9,4 foiz) va Kogon (7,9 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatning yo'lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Buxoro shahri (1051544,4 ming yo'lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich bilan G'ijduvon (652460,6 ming yo'lovchi-km), Kogon (380089,8 ming yo'lovchi-km) va Buxoro (506953,5 ming yo'lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.




**Hududlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi, ming yo‘lovchi-km**

	<i>ming yo‘lovchi-km</i>	<i>2022 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
<b>Viloyat jami</b>	<b>4723252,8</b>	<b>101,5</b>	<b>100,0</b>
Buxoro sh.	1051544,4	101,8	22,2
Kogon sh.	144999,3	98,7	3,1
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	506953,5	102,1	10,7
Vobkent	325283,0	100,5	6,9
Jondor	344788,7	102,1	7,3
Kogon	380089,8	101,5	8,0
Olot	163555,4	101,4	3,5
Peshko‘	27797,8	101,2	0,6
Romitan	326826,3	101,8	6,9
Shofirkon	286884,2	101,1	6,1
Qorako‘l	178824,7	101,3	3,8
Qorovulbozor	333245,1	101,7	7,1
G‘ijduvon	652460,6	101,4	13,8


Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi eng kichik yo‘lovchi-km quyidagi hududlar Peshko‘ (27797,8 ming yo‘lovchi-km), Olot (163555,4 ming yo‘lovchi-km) tumanlari va Kogon shahri (144999,3 ming yo‘lovchi-km) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi,  
foiz hisobida  
(2023 yil yanvar-iyun)**



Hududlar bo'yicha yo'lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahri (22,2 foiz) egalladi. Shu bilan birga G'ijduvon (13,8 foiz), Buxoro (10,7 foiz), Kogon (8,0 foiz) va Jondor (7,3 foiz) tumanlarida kuzatildi.

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,  
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi  
(2023 yil yanvar-iyun)**



### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti** – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo'lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochталarni avtomobillarda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta'minlovchi transport.

**Avtotransport vositalari** – yo'lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

**Yo'lovchi avtomobili** – o'zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo'lovchilar va bagajlarni tashishga mo'ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta'minlangan avtomobil.

**Yuk avtomobili** – yuklarni tashishga mo'ljallangan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo'linadi.

**Avtobus, mikroavtobus** – yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan va haydovchi o'rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o'tirish o'rindig'iga ega bo'lgan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi.

**Yengil avtomobil** – haydovchi o'rnini hisobga olmaganda, sig'imi sakkiz kishigacha bo'lgan yo'lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo'ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo'shilmaydi.

**Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi)** – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og'irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og'irligi bo'yicha aniqlanadi (tonnada o'lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og'irligi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin.

**Yuk aylanmasi** – transportning yuk tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo'natmasi og'irligini uni tashish masofasiga ko'paytmasining yig'indisi orqali aniqlanadi.

**Tashilgan yo'lovchilar** – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchiqatnovi hisoblanadi).

**Yo'lovchi aylanmasi** – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.